



FORTEPIANO ANSAMBLI AMALIY MASHG'ULOTLARINING ASOSLARI

An Anjella Aleksandrovna

O'zbekiston davlat konservatoriyasi

"Fakultetlararo fortepiano ijrochiligi" kafedrası katta o'qituvchisi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10071412>

ARTICLE INFO

Received: 25th October 2023

Accepted: 30th October 2023

Online: 31th October 2023

KEY WORDS

Musiqqa madaniyati, fortepiano, san'at, ansambl, konsert, professional ijrochiligi, musiqqa cholg'usi.

ABSTRACT

Mazkur maqolada fortepiano cholg'usida hamkorlikda ijrochilik etish bo'yicha fikr-mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, musiqqa madaniyatida fortepiano cholg'u ijrochiligining ilmiy-nazariy ahamiyati batafsil yoritib berilgan.

Musiqqa ta'limida hamkorlikda ijro etish san'atini o'rganishni fortepiano ansambli sinfidagi mashg'ulotlardan boshlash maqsadga muvofiq. Hamkorlikdagi ijroning boshqa shakllaridan farqli o'laroq, fortepiano dueti bir xil mutaxassislikka oid ijrochilarni o'zida birlashtiradi. Bu esa ular orasidagi o'zaro tushunishni engillashtiradi. Ushbu janr ko'p yillik tarixga ega. Muayyan davrda konsert sahnasida fortepiano duetining ikki xili mavjud edi: bular – bitta royaldagi duet va ikkita royaldagi duet. Hozirgi davrga kelib, ikkita royaldagi duet amaliyotdan mustahkam joy egalladi: List va Rubinshteyn zamonidagi singari bitta royaldagi to'rt qo'l bo'lib hamkorlikda ijro etadigan ijrochilarni uchratish qiyin. Bitta fortepiano to'rt qo'l bo'lib ijro etish bugungi kunda, asosan, uydagi musiqiy mashg'ulotlar, o'quv jarayonidagina uchraydi. Forteplano duetining professional kontsert amaliyotida keng tarqalishi bejiz emas. Bunday ansamblning o'ziga xosligi ijrochilarning to'laqonli erkinligini namoyon etadi. Bunda ham bir ijrochi o'z cholg'usiga ega bo'ladi. Ikki ijrochi hamda ikki ijrochining mavjudligi bois fortepiano bo'y imkoniyatlari yanada kengayadi. Aynan shu xususiyat kompozitorlarning e'tiborini o'ziga jalb etdi.

Forteplano ansamblining yana bir shakli mavjud – ikki fortepiano sakkiz qo'llik ijro. Bu xil "kvartet" ijro bolalar musiqqa maktablarida salmoqli foyda keltiradi. Ansambldagi duet ijrosidan ko'ra, to'rt nafar ijrochini birlashtirish jamoaviy mas'uliyat hissining rivojlanishiga ko'proq turtki bo'ladi. Sakkiz qo'llik ijro konservatoriya mashg'ulotlarida ham qo'llanilgan. Forteplano ansamblarining ijro dasturini ansambl uchun maxsus yaratilgan original asarlar (shuningdek, kontsert transkripsiyalari) va simfonik musiqani ommalashtirish maqsadida qayta ishlangan asarlarga bo'lish mumkin. Bitta fortepiano to'rt qo'llik ijro uchun Evropa kompozitorlaridan V.A.Motsart, F.Shubert, R.Shuman, K.Veber, M.Ravel, S.Raxmaninov, O'zbekiston kompozitorlaridan R.Abdullaev, M.Otajonov, E.Salixov, O.Abdullaeva, X.Hasanova va boshqa yirik kompozitorlar maxsus asarlar yaratgan. Biroq ikkita fortepiano to'rt qo'llik



ijro uchun yaratilgan kontsert dasturi yanada boy va xilma-xildir. O'quv jarayonida fortepiano ansamblining barcha turlari va ijro dasturining ikkala bo'limidan (kontsert p'esalari va qayta ishlangan "klavir"lar) ham teng ravishda muvaffaqiyat bilan foydalanish mumkin. Orkestr asarlarining qayta ishlangan klavirlari – nota o'qish, nota matnini tez ilg'ash ko'nikmasini rivojlantirish, asarni "eskizda" ijro etish uchun yaxshi materialdir.

Muayyan simfonik asarni kontsertda, radio yoki magnit tasmasida tinglash va mustaqil chalib ko'rish – bu har xil narsalar. Asarni qanchalik e'tibor bilan tinglab ko'rmang, uni yaqindan o'rganishda chalib ko'rish va mustaqil talqin etishdek katta ma'lumotga ega bo'lish qiyin. Bunda ijrochi nafaqat o'rganish jarayonini boshdan kechiradi, balki, estetik quvonchni ham his etadi. Torli va damli cholg'u ijrochilari orkestr tarkibida bo'lib, simfonik asarlarning yangidan tug'ilishida qatnashadilar. Pianinotchilar esa bundan xoli. Ko'p hollarda, pianinotchilar orkestr uchun yaratilgan asarlarni chalib ko'rishni istaydilar. Simfonik musiqani to'rt qo'llik shaklda fortepianoda ijro etish ushbu niyatni bir muncha qondirishi mumkin. Original duet asarlar va kontsert transkriptsiyalari ommaviy ijro uchun mo'ljallangan bo'lib, tugal maromiga etgan ijroni talab etadi. Ushbu asarlarni o'rganish ansamblning xilma-xil talabini tushunib etishga yordam beradi, ijrochilarning ijodiy tafakkurini boyitadi va ularning mahoratini yanada mukammallashtiradi. Hamkorlikdagi ijroning "alifbe"sidan boshlaymiz. Duet ijrosining qaysi ko'nikmalari ushbu "alifbe"ning mazmunini tashkil etishini ko'rib chiqamiz. Boshlang'ich ta'limning quyidagi bo'limlarini "ansambl" texnikasi"ni egallashdagi birinchi qadam, deya belgilash mumkin:

- *bitta fortepianoda to'rt qo'llik ijro holatidagi o'tirish va pedalizatsiya xususiyatlari;*
- *ohangni olish va echishda sinxronlikka erishish yo'llari;*
- *hamkor ijrochilar orasida taqsimlangan ohangning tengligi;*
- *tovush hosil qilish yo'llarining kelishilganligi; ovozning hamkordan hamkorga uzatilishi;*
- *turli hamkorlar tomonidan ijro etiluvchi bir necha ovozning birdamligidagi tenglik;*
- *badiiy masalalarning murakkablashuv darajasiga ko'ra hamkorlikdagi ijroning texnik masalalari ham kengayadi:*
- *poliritmiya qiyinchiliklarini uddalash;*
- *forteplano duetining alohida tembr imkoniyatlarini qo'llash;*
- *ikkita fortepianodagi pedalizatsiya va h.k.*

Bitta fortepianodagi to'rt qo'llik ijroning yakka ijrodan farqi royal' oldida o'tirishdan boshlanadi, negaki, har bir pianinochi o'z tasarrufida klaviaturaning faqat yarminigina egallaydi. Hamkorlar klaviaturani "baham ko'ra bilish"lari va, ayniqsa, ovoz harakatining yaqinlashuvi yoki kesishuvi (birinchi tirsak ikkinchisining tagida)da bir-biriga xalaqit bermaydigan tarzda tirsaklarini ushlab turishi kerak bo'ladi. Hamkorlardan qaysi biri to'rtqo'llik ijro chog'ida pedalizatsiya qilishi kerak? Ko'p hollarda o'quvchilar buni bilmaydi. Ta'kidlash kerakki, pedalizatsiyani Secondo (ikkinchi) partiya ijrochisi amalga oshiradi, negaki, ikkinchi partiya, ko'pincha, yuqori registrda o'tadigan melodiyaga garmonik poydevor (bas) vazifasini bajaradi. Bunda ushbu ijrochi o'zining hamkorini e'tibor bilan tinglab, uning partiyasida yangraydigan musiqiy matoni nazarda tutishi zarur. O'zining ijrosini tinglash bilan birga, shu vaqtning o'zida hamkorni ham tinglash, aniqrog'i, yaxlit birlikni tashkil etuvchi ikkala partiyaning umumiy yangrashishi – barcha turdagi ansamblarning asosidir



Yakka ijrochilik pianinotchiga o'z-o'zini tinglashni o'rgatadi, uning e'tibori muayyan nuqtaga qaratilgan bo'lib, uni o'zgartirish oson emas. "Sen hamkoringni tinglamayabsan", - deyish o'quvchi uchun etarli bo'lmaydi. Bu hol muayyan nuqtaning ikkilanishi, u va bu ("men" va "u")ni noaniq tinglashga olib keladi. Tinglaganda o'zini va uni emas, balki, ansamblning umumiy yangrashini tinglash kerak. Umumiy yangrashni tinglay bilmaslik pianinotchining qay tarzda o'tirishida ko'zga tashlanadi: klaviaturaga "tikilish", barmoqlarining harakatini e'tibor bilan kuzatish; qaddi nihoyatda bukilgan, ohangdor bo'limlarda kuyning yangrashini bir qulog'i bilan eshitishga harakat qilganlik tarzida boshini bir tarafga buradi. Bunday holatda ikkala partiyaning yangrashini bir tomonda qolib, o'zining ijrosi haqida ham yaxshi fikrga ega bo'lish amri mahol! Ikkinchi partiyani ijro etadigan o'quvchiga o'zining partiyasini chalmay, balki, birinchi partiyani ijro etayotgan o'quvchiga pedalizatsiya qilishni buyurish juda foydalidir. Bunda mazkur holatning noodatiy ekanligi aniqlanadi va o'quvchining e'tibori oshadi. So'ngra pianinotchilarning o'rnini almashtirish kerak. Shunda hamkor pianinotchilar o'zlarining kamchiligini yanada yaxshiroq tushunib etadilar. Ko'p hollarda pianinotchilarning notani varaqlay olmasligi va uzoq pauzalarni sanay bilmasligi bois to'rt qo'llik ijrodagi uzluksizlik buziladi. Qo'lining bandlik darajasiga qarab, qay bir ijrochi uchun notani varaqlash qulayroq ekanligini o'quvchilar belgilab olishlari kerak; ijro jarayonida "erkin qo'l" mavjud bo'lmagan holda, nota yozuvining qay bir parchasini yod olib chalish kerak ekanligi aniqlab olinishi kerak bo'ladi. Kerakli paytda bitta qo'l bilan notani tez va chaqqon varaqlab, ikkinchi qo'l bilan chalishda davom etish oson ish emas; buning uchun maxsus mashqlar yordamida ko'nikma hosil qilib o'rganish zarur.

Pianinotchilar okestr ijrochilari singari uzoq pauzalarni to'g'ri sanash ko'nikmasiga ega emaslar. Shuning uchun o'quvchilarga shuni tushuntirish kerakki, pauzalarni aniq sanash nota bilan ilk bor tanishuv chog'ida amalga oshirilishi kerak bo'lib, keyinchalik esa bu narsa shart emas. Pauzalarni sanashda sanoqning oralig'ini kengaytirish, bundan tashqari, musiqiy rivojning umumiy harakati va tuzilishini tasavvur qilgan holda muayyan iboralardan foydalanish mumkin. Pauzadan keyin musiqaga to'g'ri tushish qo'rqinchiligini engish uchun hamkorning partiyasida yangraydigan musiqaning bir parchasini qo'shib chalish yaxshi samara beradi. Bunday holda, pauza zerikarli sukut xarakteridan farqli o'laroq, jonli musiqiy hissiyot bilan to'ladi.

Ijroni birgalikda boshlash – eng oddiy narsa. Biroq, ikkita tovushni sinxron aniq olish u qadar oson emas, bunga ko'plab mashq qilish va bir-birini tushunish orqali erishiladi. O'quvchilarga dirijyorlik auftakt usulining texnik shartlari va ushbu usulning pianinochi tomonidan muayyan holatda ishlatilishini tushuntirib berish kerak. Bitta yoki parallel' joylashgan ikkita fortepianoda chalish chog'ida, hamkor ijrochilarning qo'llari bir-biriga ko'rinib turgan holatda auftakt kaftning engil harakati (yuqori nuqtaning aniq belgilanganligi), boshni qimirlatish yoki ko'z yordamida belgi berish (pianinotchilar qarama-qarshi joylashganda) orqali amalga oshirilishi mumkin. Auftakt chog'ida ikkala cholg'uchiga bir vaqtning o'zida nafas olishni maslahat berish ham foydalidir. Bu esa ijroning tabiiy holda boshlanishini ta'minlaydi. Bunda ustoz cholg'uchilarga asarni dirijyorlik ko'rsatmasi yordamida bir necha marta boshlab ko'rishni taklif etib, so'ngra buni mustaqil ravishda bajarishga ruxsat etishi mumkin. Auftakti qaysi ijrochi berishi ahamiyatli emas: hamkorlardan



har biri buni bajara bilishi kerak. Tovushlarning mos kelmasligidagi har qanday noaniqlikni jiddiy ravishda inobatga olish joiz.

Bir qarashda, oson deya tasavvur qilingan bunday birlikka tezlik bilan erishish qiyin. Ijroni sinxron boshlash bilan bir qatorda, sinxron yakunlash ham katta ahamiyatga ega ekanligini nazarda tutish muhimdir. To'g'ri yakunlanmagan akkordlar pauzani ifloslantirib, uning buzilishiga olib keladi va juda yoqimsiz taassurot hosil qiladi. Shuningdek, pauzaning ulkan ifodaviy ahamiyati haqida ham gapirish joiz. Pauzaga ahamiyat bermaslik holatlari, ayniqsa, yosh ijrochilar orasida keng tarqalgan. Texnik masala alohida tovushlarning vujudga kelishidagi sinxronlik bilan chegaralanmaydi. Hamkorlar ijrodagi yangrash vaznining tengligiga erishishlari kerak. Bunday tenglik nafaqat alohida akkordlar misolida, balki, parallel' o'tadigan ovozlari (turli partiyalardagi kuyning oktavali bayoni)da ham namoyon bo'lishi zarur. Ansambldagi ijro ilk taktlardan oq ijrochilardan to'liq hamkorlikni talab etadi. Bunda ijrochilar umumiy maqsad sari umumiy yo'l orqali yurishlari kerak bo'ladi.

Hamkorlikdagi ijroning tartibligi ansambl' sinflariga xos bo'lgan ishning alohida sohasidir. Texnik qiyinchiliklar nafaqat har bir partiyaning musiqiy matosida, balki, duet qatnashchilari ijrosining elementar koordinatsiyasida ham uchraydi. Nota materialini ikki qismga bo'lib chalinib, odatda, ijroni engillashtiradi (yaxlit asardan ko'ra uning bir qismini chalinib osonroq), ammo bu hol qiyinchilik ham tug'dirishi mumkin. Albatta, bitta pianinochi o'zining ikkala qo'li bilan qiyinchiliksiz ijro eta oladigan musiqani ikkita ijrochining ikkita qo'li bilan chalinib mushkul hisoblanadi. Bunda ijrochilar noqulaylik his etadilar. Ansamblning boshqa elementar texnik usullaridan biri – passaj, kuy, jo'rlik va boshqalarning hamkorlar tomonidan qo'ldan-qo'lga uzatilishidir.

Pianinochilar yakunlanmagan iborani musiqiy matoni buzmaganda holda, ilib olib, o'z hamkoriga uzatishni o'rganib olishlari kerak. Ijro dinamikasi haqida ham gapirish joiz. O'quvchilik ijrosining nisbatan keng tarqalgan etishmovchiligi – dinamik bir xillik: butun mato mf va f da chalinadi. To'rt qo'llik ansamblning ilk mashg'ulotida Piano dinamikasini kamdan-kam eshitish mumkin! Pianissimo haqida esa umuman gapirib bo'lmaydi! To'rt qo'llik ijroning dinamik hajmi yakka ijroga nisbatan yanada keng ekanligini o'quvchilarga tushuntirib berish kerak bo'ladi. Negaki, ikkita pianinochining kuchi klaviaturani to'liq ishlatish, yanada hajmkor, zich, og'ir akkordlarni tuzish imkoniyatini beradi. Yorqin dinamik effektga erishish uchun ikkita odamning kuchi teng taqsimlanishi zarur. Albatta, buning natijasida fortepiano ikki baravar kuchli yangramaydi. Biroq, shunga qaramay, muayyan natijaga erishiladi.

O'quvchi birgalikda amalga oshirilgan badiiy vazifadan ilk bor qoniqish hosil qilsa, ko'makdosh va maslakdosh bo'lib birlashgan harakatlarning umumiy hissiy to'lqinlanishidan xursand bo'lsa, sinfdagi mashg'ulotlar o'zining muhim natijasini berdi, deb hisoblash mumkin bo'ladi. Ushbu ijro mukammallikdan yiroq bo'lsada, bu hol ustozning kayfiyatini tushirmasligi kerak. Zero, etishmovchiliklarni keyingi ish jarayonida bartaraf etish mumkin. Bunda boshqa omilni qimmatliroq deb bilishimiz zarur – yakkaxon va ansambl ijrochisi orasidagi chegara yo'qolib, pianinochi hamkorlikdagi ijroning o'ziga xosligini va qiziqarli ekanini tushunib oladi.

References:

1. G. Neuhaus. On the art of piano playing. Moscow. 1997 years.
2. Gottlieb. Fundamentals of ensemble technique. M. 2009 years.



3. Khamidova, M. P. (2023). CHARACTERISTICS OF THE FORMATION OF EXHIBITION IMAGERY THINKING IN MENTALLY PAINTED STUDENTS. *International Journal of Pedagogics*, 3(05), 57-60.
4. Kharatova, S. K., & Ismailov, T. X. O. G. L. (2022). Use of innovative technologies in the educational process. *Science and Education*, 3(3), 713-718.
5. Л.Ганиева Методология фортепианно-ансамблевой музыки Узбекистана. Т.: Нишон ношир, 2016.
6. В. Никитин. «Начинающий джазовый пианист». М., 1982.
7. Davletshin M. G. Psychology of a modern school teacher. - Tashkent, Uzbekistan, 1999.
8. Kagan M.S. Artistic activity as an information system // Cinema Art. - 1975. - No. 12. - P. 99-121.
9. Karpychev M.G. Theoretical problems of the content of music. – Novosibirsk: Novosib. state conservatory. M.I. Glinka, 1997. - 62 p.
10. Sharipova G. Music teaching methodology. TDPU, 2004.
11. Levin I.A. Basic principles of playing the piano. - М.: Music, 1978. - 75 p.
12. Music teaching methodology and school repertoire. Educational and methodological complex of science. - SamSU, 2011 years.